



Surxondaryo viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyun

2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagি ulushi **74,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **10,1** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-iyunida **4,9** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **73,7** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1793 ta, savdoda 1288 ta, sanoatda 1178 ta, qurilishda 205 ta, yashash va ovqatlanishda 137 ta, tashish va saqlashda 58 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
36,5 %



Savdo
26,3 %



Sanoat
24,0 %



Qurilish
4,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
2,8 %



Tashish va saqlash
1,2 %

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	14106	19738	5632
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	2825	4906	2081
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	77,1	74,3	-2,8
Sanoat	%	47,8	45,6	-2,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,3	97,6	-1,7
Investitsiya	%	54,5	65,6	11,1
Qurilish	%	85,6	85,3	-0,3
Savdo	%	92,2	91,8	-0,4
Xizmatlar	%	71,5	66,3	-5,2
Yuk tashish	%	77,7	68,7	-9,0
Yuk aylanmasi	%	86,1	84,4	-1,7
Yo'lovchi tashish	%	96,2	91,7	-4,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,9	94,8	-2,1
Eksport	%	72,5	61,4	-11,1
Import	%	80,4	90,9	10,5



**2020- yilning yanvar-iyunida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, % da**




2020- yilning yanvar – iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Qumqo'rg'on tumanida – 615 ta, Termiz shahrida – 496 ta, Denov tumanida – 435 ta, Sho'rchi tumanida – 397 ta, Jarqo'rg'on tumanida – 392 ta va Qiziriq tumanida – 385 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bandixon tumanida – 152 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+;-)
Surxondaryo viloyati	2825	4906	2081
<i>shaharlar:</i>			
Termiz sh.	536	496	-40
<i>tumanlar:</i>			
Angor	147	182	35
Bandixon	-	152	152
Boysun	112	303	191
Denov	390	435	45
Jarqo'rg'on	191	392	201
Qumqo'rg'on	185	615	430
Qiziriq	149	385	236
Muzrabot	108	183	75
Oltinsoy	101	257	156
Sariosiyo	116	198	82
Termiz	232	277	45
Uzun	162	281	119
Sherobod	163	353	190
Sho'rchi	233	397	164



**2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**





2020- yilning yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Qumqo'rg'on tumani – 12,5 %, Termiz shahri - 10,1 %, Denov tumani - 8,9 %, Sho'rchi tumani - 8,1 %, Jarqo'rg'on tumani - 8,0 %, Qiziriq tumani - 7,9 %, Sherobod tumani - 7,2 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


	2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	(+;-)
Jami	2825	4906	2081
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	255	1793	1538
Sanoat	668	1178	510
Qurilish	373	205	-168
Savdo	1033	1288	255
Tashish va saqlash	76	58	-18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	205	137	-68
Axborot va aloqa	33	40	7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	33	25	-8
Boshqa faoliyat turlari	149	182	33

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmogi, birlikda:





Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Termiz tumanida 22,1 birlik, Termiz shahrida 20,7 birlik, Qiziriq tumanida 14,0 birlik, Boysun tumanida 12,2 birlik, Sherobod tumanida 10,6 birlik, Angor tumanida 9,1 birlik va Muzrabot tumanida 9,1 birlikni tashkil etgan. Bandixon tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 6,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



■ 2020- yil yanvar-iyun

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Termiz tumani - 22,2 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
Jarqo'rg'on tumani - 8,8 birlik;


- **Eng past ko'rsatkich**
Bandixon tumani - 6,5 birlik;

Bundan ko'rinish turibdiki, Termiz tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Bandixon tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - iyun holatiga ko'ra, % da


2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,3 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - iyunida 77,1 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Surxondaryo viloyati	45,6	85,3	66,3	65,6
<i>shaharlar:</i>				
Termiz sh.	40,8	96,5	36,7	52,7
<i>tumanlar:</i>				
Angor	89,9	100,0	88,6	77,3
Bandixon	100,0	89,2	99,3	100,0
Boysun	96,4	100,0	98,5	43,5
Denov	57,7	96,6	94,8	85,0
Jarqo'rg'on	32,1	96,4	92,0	44,7
Qumqo'rg'on	26,5	77,6	89,1	69,6
Qiziriq	81,1	92,8	97,1	93,8
Muzrabot	31,2	100,0	99,1	79,7
Oltinsoy	100,0	100,0	98,9	84,7
Sariosiyo	41,5	43,2	87,4	53,8
Termiz	93,6	99,3	82,1	64,6
Uzun	100,0	56,3	98,1	75,5
Sherobod	24,5	92,5	92,6	82,7
Sho'rchi	28,3	100,0	93,8	85,6

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Bandixon (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Uzun (100,0 %),
Boysun (96,4 %),
Termiz (93,6 %) va
Angor (89,9 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Angor (100,0 %),
Boysun (100,0 %),
Muzrabot (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Sho'rchi (100,0 %) va
Termiz (99,3 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Bandixon (99,3 %),
Muzrabot (99,1 %),
Oltinsoy (98,9 %),
Boysun (98,5 %),
Uzun (98,1 %) va
Qiziriq (97,1 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - iyunida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1115,7 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 45,6 %) tashkil qildi va 2019- yilning yanvar-iyunga nisbatan o'sish sur'ati 116,6 % ni tashkil qildi;
- 2 2128,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 65,6 %) o'zlashtirildi va 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil qildi;
- 3 1937,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 85,3 %) bajarildi va 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi;
- 4 2393,4 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyatning jami xizmatlar hajmining 66,3 %), 2019 - yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 95,4 % ni tashkil qildi;
- 5 chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 91,8 % yoki 5552,6 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 95,2 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 59,8 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 61,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2019 - yilning yanvar - iyuniga nisbatan 11,5 % ga kam;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 0,8 % ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 84,4 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 1,7 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 94,8 %) kamaygan.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Bandixon tumanida – 100,0%, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Uzun tumanida – 100,0 %, Angor tumanida – 100,0 %, Boysun tumanida – 99,7 %, Sho'rchi tumanida – 92,9 % ni, eng past ko'rsatkich Sherobod tumanida – 26,4 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-iyun oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon tumanida – 100,0 %, Boysun tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida – 100,0 %, Uzun tumanida – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 49,4 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (199,5 mlrd. so'm), Denov (145,4 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (141,0 mlrd. so'm), Sariosiyo (94,9 mlrd. so'm) va Termiz (91,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (1,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (100,0%), Oltinsoy tumani (100,0%), Uzun tumani (100,0%), Boysun (96,4%), Termiz tumani (93,6%), Angor tumani (89,9%), Qiziriq tumani (81,1%), Denov tumani (57,7%) va Sarosiyoy tumani (41,5%) tashkil etdi. Sherobod tumanida (24,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shahrlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shahrlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani 1453,5 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 107,2%), Termiz shahri - 898,9 mlrd. so'm (106,0%), Sho'rchi tumani 524,8 mlrd. so'm (96,9%) va Jarqo'rg'on tumani 312,7 mlrd. so'm (92,9%) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri - 586,8 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 109,1%), Sariosiyo tumani 182,9 mlrd. so'm (122,8%), Denov tumani 171,3 mlrd. so'm (99,6%), Boysun tumani 161,7 mlrd. so'm (107,3%) hamda Sherobod tumani da 148,3 mlrd. so'm (110,3%)





2020- yilning yanvar-iyunida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Denov tumani 719,2 mlrd. so'm (2019 yilning yanvar – iyunuga nisbatan o'sish sur'ati 101,9%), Termiz shahri - 636,2 mlrd. so'm, (83,3%) Jarqo'rg'on tumani 103,7 mlrd. so'm (104,2%), Muzrabot tumani 102,0 mlrd. so'm (103,0%) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **795** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 5,3 % (42 ta.), sanoatda – 11,1 % (88 ta), qurilishda – 17,4 % (138 ta), savdoda – 37,3 % (297 ta), xizmatlar sohasida – 28,9 % (230 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**




**2020- yil II chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning II choragida, oxirgi hisobot yilda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 7,2 punktga, xizmatlar sohasida 7,0 punktga, savdoda 12,5 punktga, sanoat korxonalarida 4,5 punktga oshdi va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3,5 punktga pasaydi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasi 16,5 punktga, sanoat sohasida 14,8 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,3 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilda sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarda II chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning II choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, xizmatlar sohasi 8,3 punktga, savdo sohasi 5,7 punktga, sanoat korxonalari 14,2 punktga, qurilish korxonalari 8,2 punktga, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4,8 punktga, ximatlar sohasida 0,8 punktga, savdoda 0,9 punktga va qurilishda 1,4 punktga ko'paydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillarda II chorakdagи iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020- yilning II choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 238 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 49 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 20,6 %), qurilish – 12 ta (5,0 %), savdo – 72 ta (30,3 % i) va xizmatlar – 28 ta (11,8 %), qishloq, o‘rmon va baliq ho‘jaligi – 77 ta (32,3 %).

2020- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning II choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida 9,6 punktga, sanoat sohasida 5,5 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.


2019-2020- yillar II chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko‘ra, 2020- yilning II choragini o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kamaygan.

Shuningdek, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag‘i iqtisodiy vaziyat o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 29,7 punktga, qurilishda 22,8 punktga, savdoda 3,3 punktga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi korxonalarida esa 1,3 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 0,6 punktga, savdoda 5,6 punktga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi korxonalarida 1,3 punktga, sanoat 2,0 punktga oshgan.



2019-2020- yil II choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

